HSR London International Conference on Multidisciplinary Academic Research
(HSR-ICMAR) 2026
https://houghtonstreetreview.com/index.php/conference

HUDUDLAR O‘RTASIDA SANOAT FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASH VA KORXONALARNING BOZOR USTUNLIGINI TA’MINLASHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI

Rahmonova Tillaoy Malik qizi
Qarshi davlat universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22166315

Hududiy diversifikatsiya ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi. Turli hududlarda mehnat resurslari narxi, xomashyo bazasi, energiya ta’minoti va logistika sharoitlari farqlanadi. Korxonalarning ushbu omillarni hisobga olgan holda joylashuvi tannarxni pasaytirish va xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyasini amalga oshirish imkonini yaratadi. Natijada korxona narx ustunligiga ega bo‘ladi va bozor ulushini kengaytiradi. Innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi va turli mintaqalarda ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi, texnoparklar, sanoat klasterlari va malakali kadrlar salohiyatining mavjudligi korxonalarga yangi mahsulotlar ishlab chiqish va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish imkonini beradi. Bu esa mahsulot differensiasiyasini kuchaytiradi va korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantiradi. Hududiy diversifikatsiya risklarni kamaytirishda bir hududga haddan tashqari bog‘lanish iqtisodiy beqarorlik, resurs tanqisligi yoki ekologik cheklovlar ta’sirini kuchaytirishi mumkin. Ishlab chiqarish quvvatlarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi esa tashqi shoklar ta’sirini yumshatadi va barqarorlikni ta’minlaydi. Bu jihat ayniqsa global raqobat kuchaygan sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, hududiy diversifikatsiya kooperatsion aloqalarni kengaytiradi va tarmoqlararo integratsiyani kuchaytiradi. Sanoat klasterlari va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlarning rivojlanishi qiymat zanjirini chuqurlashtirib, sinergiya samaradorligini oshiradi. Bu esa umumiy mehnat unumdorligini ko‘paytiradi va korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Xulosa qilib aytganda, hududiy diversifikatsiyalash korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishning ko‘p omilli mexanizmi bo‘lib, u xarajatlar samaradorligi, innovatsion rivojlanish, risklarni boshqarish va bozor moslashuvchanligini bir vaqtning o‘zida ta’minlaydi. Mazkur jarayon makroiqtisodiy siyosat, infratuzilma rivoji va korxona strategiyasi bilan uyg‘unlashganda barqaror raqobat ustunligi shakllanadi.

Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi barcha soha va tarmoqlarning muvozanatli faoliyatiga bog‘liq bo‘lsa-da, sanoat real sektorning asosiy bo‘g‘ini sifatida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi va ularning raqobatbardoshligi mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligining muhim indikatori hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, hududlararo diversifikatsiya va klasterlashuv sanoatni rivojlantirishning zamonaviy strategik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Raqobatbardoshlikni oshirishda klaster yondashuvini ilmiy asoslab bergan olimlardan biri M.Porter hisoblanadi. Uning fikricha, mamlakat yoki mintaqaning raqobatbardoshligi valyuta kursi, foiz stavkalari, budjet kamomadi, arzon ishchi kuchi yoki tabiiy boyliklar bilan emas, balki ishlab chiqarish samaradorligi bilan belgilanadi. Porter ta’rifiga ko‘ra, klaster - bu hududiy jihatdan yaqin joylashgan, o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi korxonalar hamda ularni qo‘llab-quvvatlovchi institutlar majmui bo‘lib, ular innovatsion faoliyatni jadallashtiradi va qiymat zanjirini chuqurlashtiradi.

Zamonaviy sharoitda innovatsion rivojlanish iqtisodiyot raqobatbardoshligining asosiy omiliga aylangan. Bu jarayon xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lib, innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi mahsulotlar yaratish va global bozorda ustunlikni qo‘lga kiritishning muhim manbai sifatida talqin etiladi.

Xorijiy tajriba, xususan AQSh modeli, innovatsion iqtisodiyot shakllanishining amaliy namunasidir. AQShda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilgan. Raqamli infratuzilmani kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshganligi empirik tadqiqotlarda qayd etilgan. Xususan, yuqori texnologiyali tarmoqlarda o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlarining yuqori darajada bo‘lishi innovatsion siyosatning samaradorligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, AQSh tajribasida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta’minlashda innovatsion klasterlarni shakllantirish amaliyoti keng qo‘llaniladi. “Triple helix” modeli asosida davlat, biznes va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday klasterlar hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtiradi, eksport salohiyatini kengaytiradi va global raqobat ustunligini mustahkamlaydi.

AQSh tajribasida sanoat raqobatbardoshligini oshirishning markaziy yo‘nalishi sifatida innovatsion iqtisodiyot va axborot texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish tanlangan. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-texnik infratuzilmani kengaytirish va raqamli yechimlardan foydalanish ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda bozor talabiga tez moslashish imkonini yaratadi. Ayrim tadqiqotlarda AQShda olib borilgan innovatsion siyosat natijasida sanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lganligi qayd etiladi.

AQSh innovatsion tizimining muhim jihati - innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, boshqarish va muvofiqlashtirishning institutlashtirilgan tizimi mavjudligidir. Xususan, “Amerika ilmiy jamg‘armasi”, “Amerika ilmiy kengashi”, NASA, “Milliy standartlar byurosi”, Mudofaa vazirligi, “Sanoat tadqiqotlari milliy markazi”, “Milliy fanlar akademiyasi”, “Milliy texnika akademiyasi”, “Amerika fanlari rivojlanishiga ko‘maklashuvchi assotsiatsiya” kabi institutlar iqtisodiyot va sanoat raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. AQSh modelida yirik ilmiy loyihalar hukumat tomonidan to‘liq moliyalashtirilishi, ularni ishlab chiqish va realizatsiya qilishda venchur jamg‘armalari hamda tadqiqot markazlari faol ishtirok etishi xosdir. Innovatsion infratuzilmani yaratish ko‘p hollarda davlat zimmasida bo‘lib, natijada “**ilm-fan – ta’lim – ishlab chiqarish – kapital**” integratsiyasi samarali yo‘lga qo‘yiladi. Bundan tashqari, AQShda 1970-yillardan boshlab ilmiy g‘oya va texnologiyalar tarqalishini ta’minlovchi axborot mexanizmlari shakllantirilgan, federal laboratoriyalar konsorsiumi orqali davlat ilmiy-tadqiqotlarining ma’lumotlar bazasi yuritilgan. 1980-yillarda xususiy sektorni jalb etish va ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilishni jadallashtirish uchun tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Unga ko‘ra, ilmiy-tadqiqot bo‘limiga ega davlat tuzilmalari budjetining kamida 0,5 foizini texnologiyalarni tatbiq etish yo‘nalishiga yo‘naltirishi belgilangan, shuningdek universitetlar, kichik biznes va notijorat sektoriga davlat budjetidan moliyalashtiriladigan kashfiyotlarni boshqarish bo‘yicha vakolat va majburiyatlar berilgan.

Xulosa va takliflar : Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududiy diversifikatsiya sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda strategik va ko‘p omilli mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarish omillarini hududlar kesimida maqbul joylashtirish tannarxni pasaytirish, logistika va energiya xarajatlarini optimallashtirish hamda xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyasini amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi, texnoparklar va sanoat klasterlari mavjud hududlarda innovatsion faoliyatning jadallashuvi mahsulot differensiasiyasi va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish orqali uzoq muddatli raqobat ustunligini ta’minlaydi. Hududiy diversifikatsiya risklarni hududlar bo‘yicha taqsimlash orqali iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi. Ishlab chiqarish quvvatlarining bir necha mintaqada joylashuvi tashqi shoklar, resurs tanqisligi yoki ekologik cheklovlar ta’sirini yumshatadi. Bu jihat global raqobat kuchaygan va bozor noaniqligi ortgan sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rodrik D. Industrial policy for the twenty-first century // Harvard University Working Paper. – 2004. – 57
2. Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton & Company, 2000. – 823 p.
3. Lin J.Y. New Structural Economics: A Framework for Rethinking Development. – Washington: World Bank, 2012. – 373 p.
4. Rodrik D. Industrial Policy for the Twenty-First Century // Harvard University Working Paper. – 2004. – 57 p.
5. Aghion P., Howitt P. The Economics of Growth. – Cambridge: MIT Press, 2009. – 511 p.
6. Krueger A.O. Government Failures in Development // Journal of Economic Perspectives. – 1990. – Vol. 4, № 3. – P. 9–23.
7. Chang H.J. Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective. – London: Anthem Press, 2002. – 187 p.